

## 6-Mavzu: Adabiy ertaklar

### Darsning maqsadi:

- Anvar Obidjonning “ O‘rmondagи ziyofat ” ertagi bilan tanishtirish;
- adabiy ertaklar haqidagi tushunchalarini boyitish;
- ifodali o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish .

**Tayanch so‘zlar:** adabiy ertak, oshxona, xo‘randa, jonivorlar.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar, rag‘bat kartochkalari.

### Darsning borishi:

#### I. Darsning kirish qismi. (*3daqiqa*)

Darsni tashkil qilish.

#### Faollashtiruvchi mashq:

**“Tushunchani aniqla”** mashqi.

Quyidagi so‘zlarni birlashtiruvchi tushunchani aniqlang.

Ayiq, daraxtlar makoni, olmaxon

#### II. O‘tilganlarni takrorlash. (*10 daqiqa*)

“Yo‘lbars va Tulki” ertak mazmuni so‘raladi. “Mening sevimli ertak qahramonim” mavzusida taqdimot tinglanadi.

#### III. Darsning asosiy qismi. (*30 daqiqa*)

**Amaliy mashg‘ulot.** So‘zni teskarisiga o‘qing.

#### FILLAUM

#### Muhokama uchun savollar.

1. Qanday so‘z o‘qidingiz?
2. Bu so‘z haqida nima deya olasiz?

**Mavzuni tushuntirish.** Darslikda berilgan rasm kuzatiladi va savolga javob beriladi.

Rasmda qaysi ertaklar berilgan? Ertakning mualliflari o‘qiladi.

Nima uchun bu ertaklar adabiy ertaklar hisoblanadi?

Ertaklarning muallifi ma'lum bo'lsa, ular adabiy ertaklar sanaladi. Adabiy ertaklar she'riy shaklda ham yozilishi mumkin.

### **Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha ma'lumot beriladi.**

O'zbekiston xalq shoiri **Anvar Obidjon** Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida tug'ilgan. Anvar Obidjon "Ona-yer", "Olovjon va uning do'stlari", "Bezgakshamol", "Akang qarag'ay Gulmat", "Oltin yurakli Avtobola", "Alamazon va Gulmat hangomasi", "Meshpolvonning janglari", "Oltiariq xangomalari", "Odobli bo'lish osonmi?", "Meshpolvon" singari 25 ta to'plamini chop ettirdi. U aksariyat asarlarini bolalarga bag'ishlagan.



Anvar Obidjonning "O'rmondag'i ziyofat" ertagi navbatma-navbat o'qitiladi. Ertak yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. O'rmonda nima ochildi?
2. Ertakda qaysi hayvonlar tilga olingan?
3. Ular nima ish qiladi?
4. Mehmonlar nima buyurdi?
5. O'rmonda ochilgan oshxonani qanday tasavvur qilasiz?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

**taom** – ovqat, yemish, yegulik.

**chag'ir** – ola-bula, kulrang.

**chirik** – chirigan.

**xo'randa** – ovqat sotib oluvchi , ovqatlanuvchi.

Darslikdagi topshiriqlar bajariladi.

### **"Adashgan harflar"** mashqi.

Jadvaldagi harflarni o'z o'rniغا qo'yib, so'zlarni o'qitiladi.

fil	begemot	eshak	olmaxon
to'n g'iz	ot	buzoq	kirpi
mushuk	kuchuk	maymun	tulki

**“Tanlab o‘qish”** mashqi o‘tkaziladi.

Jadvaldagi hayvonlar haqidagi ma’lumotlarni ertakdan topib o‘qitiladi.

**Mashq daftari bilan ishslash.** Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

O‘rmon oshxonasiga kelgan hayvonlarning nomi chap ustunga, ular buyurgan yeguliklari o‘ng ustunga yoziladi.

Kuchuk	➡	Suyak
Maymun	➡	Achchiq choy
Mushuk	➡	Sutga to‘g’ralgan non
Tulki	➡	Kakao, tovuq
Qo‘zi	➡	Beda
Olmaxon	➡	Yong‘oq
To‘ng‘iz	➡	Chirik oshqovoq
buzoq	➡	Kunjara, somon
kirpi	➡	suvilon
ot	➡	suli

**“Bog‘la”** mashqi.

Qahramonlar o‘z bajaradigan vazifasi bilan moslashtiriladi.

Quyon - bosh oshpaz, Bo‘ri - o‘t qalovchi, Ho‘kiz - qorovul, echki - ofitsiant.

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

- Adabiy ertaklar haqida nimalar bilib oldingiz?
- Sizga nima yangilik bo‘ldi?

**V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)** Ertakni ifodali o‘qing. Tasavvuringizdagi o‘rmon oshxonasining rasmini chizing.

### **7-Mavzu: Tabiat in’omi**

**Darsning maqsadi:**

- Zamira Ibrohimovaning “Suv va Daraxt” ertagi bilan tanishtirish;
- tabiat in’omi haqida ma’lumot berish;
- rollarga bo‘lib o‘qish ko‘nikmasini o‘stirish.

**Tayanch so‘zlar:** tabiat in’omi, suv, buloq, kamtarlik, beg‘araz yordam.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar.